

DOI: 10.5281/zenodo.15619810

Link: <https://zenodo.org/records/15619810>

O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY SALOHIYATI: STATISTIK TAHLIL VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Narmetova Dilafruz Azamatovna,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens-nazorat" tizimi boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi

Email: dilya_16_22@mail.ru

+998934707788

Annotatsiya. Mazkur maqolada orqali kichik biznes subyektlarining iqtisodiy salohiyatini oshirishning dolzARB masalalari yoritilgan. Kichik biznes samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillar, strategik yondashuvlar va zamonaviy boshqaruv usullari tahlil qilinib, ularning iqtisodiyotdagi o'rni va istiqbollari muhokama qilinadi. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni, bandlikdagi salmog'i va rivojlanish istiqbollarini 2024 yil yakuni va 2025 yil boshidagi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Ushbu maqola zamonaviy ilmiy manbalar va statistic ma'lumotlarga asoslangan. Shuningdek, kichik biznesning YIMdagi ulushi, sektorlar bo'yicha taqsimoti, hukumat tomonidan ko'rileyotgan chora-tadbirlar va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyiylar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, samaradorlik, innovatsiya, iqtisodiy salohiyat, YIM, bandlik, iqtisodiy islohotlar.

Kirish. Kichik biznes iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim o'rIN egallab kelmoqda. Ko'plab davlatlar kichik biznesni iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rnlari yaratish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirishning assosiy drayveri sifatida e'tirof etganlar. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu yo'nalishda izchil islohotlar olib bormoqda. Prezident qarorlari, qonunchilik asoslari va tegishli normativ hujjatlar orqali kichik biznesni qo'llab-quvvatlash choralar kuchaytirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 martdagি PF-50 sonli "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rmini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bunga misol bo'la oladi.

Shunga qaramay, kichik biznes subyektlarining ko'plab muammolari saqlanib qolmoqda. Jumladan, moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi, marketing salohiyatining pastligi, boshqaruv va innovatsion texnologiyalarni yetarlicha joriy qilinmaslik holatlari mavjud. Ushbu maqolada kichik biznes samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillar, ularni tahlil qilish usullari va amaliy yechimlar ko'rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xalqaro va mahalliy tadqiqotlarga ko'ra kichik biznes samaradorligini oshirishning turli usullari taklif etilgan. Jumladan, Porter (1998) kichik bizneslar uchun raqobat ustunligini shakllantirish muhimligini ta'kidlagan. Chandler va Hanks (1994) esa tashkilotning ichki resurslari va strategik boshqaruv samaradorlikka ta'sir ko'rsatishini aniqlab bergan. O'zbekistonda esa A.Jo'rayev (2020) kichik korxonalarini raqamlashtirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari samaradorlikka ijobjiy ta'sir qilayotganini ko'rsatib bergan.

Ushbu adabiyotlar tahlilidan shuni ko'rishimiz mumkinki, kichik biznes samaradorligini oshirishda ichki boshqaruv mexanizmlari, innovatsion yondashuvlar va tashqi qo'llab-quvvatlash kabilar muhim omillar hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada ilmiy-tahliliy yondashuv orqali O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi kichik biznes faoliyatlari o‘rganildi hamda quyidagi usullar asosida olib borildi:

Statistik tahlil: O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Iqtisodiy tadqiqotlar instituti ma’lumotlaridan foydalanan holda, Davlat statistika qo‘mitasi va boshqa rasmiy manbalar asosida kichik biznes sohasi bo‘yicha 2024 yil yakuni va 2025 yil boshidagi ma’lumotlar tahlil qilindi.

Analitik yondashuv: Raqamli ko‘rsatkichlar asosida iqtisodiy natijalar ko‘rib chiqildi.


Normativ-huquqiy tahlil: Hukumat qarorlari va Prezident farmonlari asosida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilindi.

Xalqaro tajriba: Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar o‘rganildi.

Kichik biznes O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida muhim rol egallagan. 2024 yilda kichik biznesning YIMdagi ulushi 54.3%ni tashkil etdi, bu esa sektorning iqtisodiyotdagi ulushini ko‘rsatadi. 2025 yilning birinchi choragida bu ko‘rsatkich 45.6%ga yetdi [1].

Tahlil va natijalar. Tahlillar asosida quyidagilar aniqlandi:

Kichik biznesning YIMdagi ulushi (2024 yil yakuni). 2024 yilda kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilgan qo‘shilgan qiymat 753,226.9 milliard so‘mni tashkil etib, bu umumiyl iqtisodiyotdagi qo‘shilgan qiymatning 54.3% iga teng bo‘ldi [2]. Sektorlar bo‘yicha taqsimoti diagramma bo‘yicha quyidagicha (1-diagramma):



1-diagramma. Sektorlar bo‘yicha taqsimot

2. Kichik biznesning bandlikdagi o‘rni (2025-yil I-chorak). 2025-yilda O‘zbekistonda 2 milliondan ortiq kishi kichik biznesda faoliyat yuritib kelmoqda. Hukumat tomonidan 120 trillion so‘m miqdorida kredit ajratilishi rejallashtirilgan bo‘lib, bu kichik biznes loyihamalarini moliyalashtirishga yo‘naltirilmoqda. 2025-yilning yanvar oyida kichik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 24%ga oshdi. Mebel sanoatida kichik biznesning ulushi 38%dan 57%gacha, uskunalar ishlab chiqarishda esa 53%dan 63%gacha oshdi.

3. Hukumat tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar.

2025-yilda kichik biznesni rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

- Kichik biznes loyihamalarini moliyalashtirish uchun 120 trillion so‘m miqdorida kredit ajratilishi rejallashtirilgan .
- Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar ajratilishi ko‘zda tutilgan.
- Kichik biznes eksportini 9 milliard dollardan 12 milliard dollarga oshirish uchun transport, sertifikatlash va standartlashtirish sohalarida qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rilmoxda.
- 1.5 million doimiy ish o‘rinlari yaratish va kichik biznesda band aholining ulushini 75%ga yetkazish rejallashtirilgan.

4. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik.

O‘zbekiston Respublikasi kichik biznesni rivojlantirishda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilmoqda:

- Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun 100 million dollarlik siyosatga asoslangan kreditni tasdiqlagan.
- Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash loyihasi ishga tushirilgan.

Kichik biznes bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan ya’ni Singapur, Janubiy Korea va Germaniya davlatlar tajribalarini taqqoslanishini quyidagi jadval orqali ko‘rib chiqamiz (1-jadval):

1-jadval.

Davlatlar tajribalarining taqqoslanishi

No	Davlat nomlari	Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash	Davlat ko‘magining shakllari	Satraptalar va yoshlar uchun imkoniyatlari
1	O‘zbekiston	Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) orqali 100 million dollar kredit ajratilgan. Islom Taraqqiyot Banki bilan ham yoshlar va ayollar biznesini qo‘llab-quvvatlash loyihamalarini amalga oshirilmoqda.	Davlat kichik biznesni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlayapti, lekin institutsional tizim hali to‘liq shakllanmagan.	Islom Taraqqiyot Banki bilan birgalikda yoshlarga kredit va treninglar berib kelinmoqda.
2	Singapur	Moliyaviy yordam asosan davlat byudjeti va “Enterprise Singapore” agentligi	Maxsus hukumat agentligi (Enterprise SG) kichik bizneslarni bosqichma-bosqich	Yosh tadbirkorlar uchun startap grantlari, mentorlik va investorlar bilan

		orqali beriladi. Kreditdan ko‘ra, biznesni rivojlantirish uchun grantlar va treninglar ustuvor hisoblanadi.	rivojlantiradi – maslahat, grant, eksportga chiqishgacha o‘z yordamini beradi.	bog‘lovchi platformalar mavjud.
3	Janubiy Korea	Maxsus KOB banklari orqali past foizli kreditlar beriladi. “KODIT” tizimi bilan hukumat kichik bizneslarning olgan kreditlariga kafolat beradi.	“KOSME” agentligi biznesni moliyaviy va texnologik jihatdan tayyorlaydi. Davlatda texnoparklar va startap markazlari keng tarqalgan.	Har bir viloyatda startap inkubatorlari va akselerator markazlari mavjud. IT va texnologiya sohasiga alohida e’tibor qaratilgan.
4	Germaniya	KfW banki orqali kichik bizneslar uchun arzon kreditlar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar ishlab chiqilgan.	“Mittelstand” modeli orqali kichik bizneslar mahalliy sanoat palatalari va banklar bilan uzviy ishlaydi. Shuningdek, har bir bosqichda konsultatsiya va moliyaviy yordam mavjud.	Universitetlar va sanoat korxonalari orqali startap ekotizimi yaratilgan. Davlat va xususiy sektorlar birlikda harakat qiladi.

Ushbu taqqoslash orqali shuni kuzatishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro tajribalardan yordam olmoqda, ammo ichki tizimlar hali rivojlanishda davom etmoqda. Singapur davlati o‘z kuchiga tayangan va grantlar orqali rivojlanishda davom etmoqda. Janubiy Korea maxsus banklar va kafolat tizimi bilan tadbirkorlarni himoya qilmoqda. Germaniya davlati uzoq yillik tajribaga ega bo‘lib, kichik biznes uchun to‘liq infratuzilmani yaratgandir.

Tahlillar asosida quyidagi asosiy muammolar ham aniqlangan:

1. Moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi
2. Tajribali kadrlarning yetishmasligi
3. Raqobatbardoshlikning pastligi
4. Raqamli texnologiyalarning sust joriy qilinishi.

Shuningdek, samaradorlikni oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlar taklif qilingan:

- Davlat tomonidan subsidiyalar va soliq imtiyozlari berilishi
- Kichik biznesni raqamlashtirishga yo‘naltirilgan dasturlarni kengaytirish
- Yangi g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash
- Kadrlar malakasini oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish.

Kichik biznes faoliyatida samaradorlikka erishish uchun muvozanatlari yondashuv talab etiladi. Innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni joriy etish kichik korxonalarni global bozorga olib chiqish imkonini beradi. Boshqa tomondan, ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish va resurslardan oqilona foydalanish ham muhim omillardan biridir. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes faoliyati o‘rganilganda SWOT tahlil orqali ko‘pgina aniqliklarga ega bo‘lishimiz mumkin (2-rasm).

Shuningdek, kichik biznes aholi bandligini ta'minlashda muhim omil bo'lib, 2024 yilda 10.5 million kishini ish bilan ta'minladi, bu umumiy ishchi kuchining 74%ini tashkil etdimoqda. Bu ko'rsatkich iqtisodiyotning ijtimoiy barqarorlikdagi rolini ko'rsatadi [3].

2-jadval.

O'zbekistonda kichik biznes faoliyati samaradorligi bo'yicha SWOT tahlili

<p>S – kuchli tomonlari</p> <ul style="list-style-type: none"> Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash — Prezident farmonlari, imtiyozlar va subsidiya dasturlari kichik bizneslar uchun moliyaviy yukni kamaytiradi. Bu esa ularning rivojlanishini tezlashtiradi va faoliyat yuritishga rag'batlantiradi. Ishchi kuchining mavjudligi. Aholi sonining ko'pligi, ayniqsa yoshlar orasida ishsizlikning mavjudligi — bu ishchi kuchi tanlovi kengaytiradi va mehnat resurslarini arzonlashtirishga olib keladi. Bozorning ochiqligi. Mahalliy bozor hali to'liq to'yingan emas, bu esa yangi mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Innovatsion g'oyalarni sinab ko'rish uchun qulay muhit hisoblanadi. Hududiy imkoniyatlar. Qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va boshqa mahalliy resurslarga asoslangan sohalarda kichik bizneslar uchun tabiiy va ijtimoiy asos mavjud. Har bir hududda o'ziga xos raqobat ustunligini keltirib chiqaradi. 	<p>O – imkoniyatlar</p> <ul style="list-style-type: none"> Raqamli transformatsiya. Elektron tijorat, onlayn xizmatlar va IT texnologiyalar kichik bizneslarning xarajatlarini kamaytirib, mijozlarga tez va qulay xizmat ko'rsatish imkoniyatini yaratib beradi. Eksport imkoniyatlari. Mahalliy mahsulotlarni xorijiy bozorga chiqarish uchun hukumat yordami mavjud. Bu esa kichik bizneslarning daromadini oshiradi va yangi bozorlarga chiqish imkoniyatini yaratib beradi. Sayyoqlik va servis sohasidagi o'sish. Turizm rivojlangani sayin mehmonxonalar, milliy ovqatlanish joylari, gid xizmatlari kabi kichik bizneslarga talab oshadi. Bu esa daromad manbaini yaratib beradi. Startaplar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash. Yoshlar uchun inkubator va akselerator dasturlari orqali yangi biznes g'oyalarni amalga oshirish osonlashmoqda. Bu yangi innovatsiyalarni tezroq bozorga olib chiqishga xizmat qiladi.
<p>W – zaif tomonlari</p> <ul style="list-style-type: none"> Moliyalashtirish muammolari. Kredit olishdagi byurokratik to'siqlar yoki yuqori foiz stavkalari kichik biznesni rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bu o'z-o'zini moliyalashtirishga olib keladi, bu esa sekin o'sishni keltirib chiqaradi. Tajribaning yetishmasligi. Ko'plab tadbirkorlar biznes yuritishda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega emas. Bu esa noto'g'ri qarorlar, xatoliklar va resurslarning samarasiz ishlatalishiga olib keladi. Raqobatbardoshlikning pastligi. Mahsulot va xizmatlar sifati xalqaro standartlarga javob bermagan holatda, ular eksport yoki yirik bozorga chiqishda qiyinchilik tug'diradi. Yuqori soliqlar va byurokratiya. Ko'plab ruxsatnomalar, hujjalarni va tartib-tamoyillar kichik bizneslarning vaqt va 	<p>T – Tahdidlar</p> <ul style="list-style-type: none"> Iqtisodiy beqarorlik. Valyuta kursining o'zgarishi, inflyatsiya, tashqi bozorlardagi beqarorlik kichik biznesga salbiy ta'sir qiladi, ayniqsa moliyaviy rejalashtirishda bu o'z aksini topadi. Raqobatning ortishi. Katta korxonalar va xorijiy investorlar resurslarga ega bo'lganligi uchun, ular kichik bizneslarni bozorga kira olmaydigan holatga olib kelishi mumkin. Qonunchilikdagi tez-tez o'zgarishlar. Yangi qonunlar va tartiblar kichik tadbirkorlar uchun noaniqlik yaratadi. Ular tez moslasha olmagani sababli, bu faoliyatlariga salbiy ta'sir qiladi. Energiya va infratuzilma muammolari. Elektr energiyasi, internet yoki transport infratuzilmasining sustligi ba'zi hududlarda biznesning samaradorligini keskin pasaytirib yuboradi.

xarajatlarini oshiradi. Bu esa norasmiy faoliyat yuritishga olib kelishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy yordam, eksportni rag‘batlantirish, ayollarni qo‘llab-quvvatlash va yangi ish o‘rnlari yaratishga qaratilgan siyosati aholi bandligini oshirmoqda, ichki bozorni jonlantirmoqda, eksport imkoniyatlarini kengaytimoqda va umuman olganda, iqtisodiyotning barqaror va inklyuziv o‘sishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar. 2024 yil yakuni va 2025 yil boshidagi ma'lumotlar kichik biznesning O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi muhim rolini yana bir bor tasdiqlaydi. Kichik biznes nafaqat YIMning yarmidan ko‘pini tashkil etmoqda, balki bandlikni ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Hukumat tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar kichik biznesning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kichik biznes samaradorligini oshirish uchun tizimli yondashuv zarur hisoblanadi. Davlat siyosati, innovatsiyalar, raqamlashtirish va kadrlar salohiyati asosiy omillar sifatida belgilangan. Bu yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan islohotlar kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Birinchidan, kichik biznesni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ya’ni imtiyozli kreditlar, grantlar va subsidiyalar ajratilishi ularning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashlaydi. Bu mablag‘lar korxonalarining texnologik yangilanishi, ishlab chiqarish hajmining oshishi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga sabab bo‘ladi.

Ikkinchidan, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish zarur. Elektron tijorat, onlayn marketing kabi vositalarni joriy etish kichik korxonalarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa ularning harajatlarini kamaytirish va mijozlar bilan yanada samarali aloqani yo‘lga qo‘yishga imkon beradi.

Uchinchidan, inson kapitaliga sarmoya kiritish ya’ni xodimlar malakasini oshirish, menejment ko‘nikmalarini rivojlanterish kabilalar korxona ichki boshqaruva tizimini kuchaytiradi. Bu orqali kichik bizneslar sohasi bozordagi o‘zgarishlarga moslashishda tezkorlik va samaradorlikka erishadi.

Umimiyl qilib aytganda, kichik biznesning samaradorligini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar davlat siyosati va jamiyatdagi tadbirkorlik madaniyatining rivojiga asoslangan bo‘lishi lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 martdagি PF 50 sonli Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi Farmoni. – 6 ilova. – 2025–2030 yillarda kichik va o‘rta biznesni rivojlanterish strategiyasi. – B. 16.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi ulushi. – 2024. – URL: <https://www.stat.uz> (дата обращения: 05.06.2025).

3. Gazeta uz. Kichik biznes mavzusidagi rasmiy yangilik. – URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2025/03/19/small-business> (дата обращения: 05.06.2025).

4. Porter M. E. Competitive Advantage Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1998.
5. Chandler G. N., Hanks S. H. Market attractiveness resource based capabilities venture strategies and venture performance // Journal of Business Venturing. – 1994.
6. Jo‘rayev A. Kichik biznesni raqamlashtirishning iqtisodiy samarasi // O‘zbekiston Iqtisodiyoti jurnali. – 2020.
7. Qurbonov B. Q. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
8. Tursunov B. O. Kichik biznesni rivojlantirishning institutsional asoslari. – Samarqand, 2021.
9. Haydarov T. X. Tadbirkorlik faoliyati va uni boshqarish. – Toshkent, 2022.
10. Tursunov B. O. Kichik biznesning iqtisodiy o‘sishga ta’siri statistik tahlil asosida // Milliy iqtisodiyot jurnali. – 2021. – № 4.
11. Mamatqulov A. O‘zbekistonda kichik tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash siyosati yutuqlar va muammolar // Fan va taraqqiyot. – 2022. – № 1.
12. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz> (дата обращения: 05.06.2025).